

Shu yilning 17-19 noyabr kunlari O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev boshchiligida bir guruh professor-o'qituvchilar institutning Nukus filialida xizmat safarida bo'lishdi

Uch kun kechgan xizmat safari davomida aktyorlik mahorati, sahna harakati, vokal kabi yo'nalishlar bo'yicha filial talabalariga mahorat darslari olib borildi.



Jarayon davomida filial va institut o'rtasida o'zaro tajriba

almashish, professor-o'qituvchilarni malakasini oshirish, metodik yordam berish, qo'shma ilmiy-amaliy loyihalarni yo'lga qo'yish hamda o'tkazilgan mahorat darslari bo'yicha uchrashuvlar o'tkazilib, xulosa qilindi.





Yakuniy muhokama davomida oldimizda turgan vazifalar, har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan taklif va mulohazalar bildirildi. Xususan, dars jarayonlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida

tashkil etish, talabalar ijodiy salohiyatini oshirish, amaliy mashg'ulotlar sifatini yanada yaxshilash, o'quv dasturlarini yangilash va mutaxassislik fanlari bo'yicha innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish zarurligi ta'kidlandi.





Shuningdek, ular xizmat safari davomida Nukus shahridagi bir qator madaniy tadbirlarda qatnashdilar.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilinganiga 34 yil to'lishi munosabati bilan Nukus filiali jamoasi tomonidan tayyorlangan kosert dasturida, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida namoyish etilgan "Sevmaganga suykalma" spektaklida, filialda bo'lib o'tgan «Yashil makon» umummilliy loyihasida, Nukus ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabining 65 yilligiga bag'ishlangan yubiley tadbirida ishtirok etishdi.





Bundan tashqari O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali jamoasi bilan ham uchrashib, filial faoliyati bilan yaqindan tanishishdi. Bunda filialning yangi binosi, yaratilgan zamonaviy o'quv-madaniy sharoitlar, talabalarning ta'lim jarayoni, mavjud auditoriyalar, maxsus xonalar, institutning moddiy-texnik bazasi hamda kutubxona fondi ko'rib chiqildi.









Shundan so'ng Fransiyaning Versal konservatoriyasi bilan hamkorlikda fransiyalik musiqa ijrochilari «Trielen triosi» va filialning iqtidorli talaba-yoshlaridan tashkil topgan «Damli cholg'ular orkestri» bilan hamkorlikdagi konsert dasturida qatnashishdi.

Shuningdek, institut jamoasi I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san'at muzeyida ham b'lishib, katta ta'surotlarga ega bo'lib qaytildi.

**0'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti
Rejissyorlik (kino va
televideniye) ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Oxunov Axadjon Moskva
shahrida bo'lib o'tgan
"Взрослеем вместе" VII
Xalqaro kinofestivalda
o'zining "Клоун" qisqa
metrajli filmi bilan ishtirok
etib, festivalda g'olib deb
topildi**

Bugungi kunda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tahsil olayotgan yosh ijodkorlarning xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlari yurtimiz kino maktabining salohiyati tobora ortib borayotganini yana bir bor namoyon


etmoqda. Talabalarning nufuzli festivallardagi ishtiroki va yutuqlari ularga yaratib berilgan imkoniyatlar, o'qitvchilar mehnati hamda talabalarning o'z ustida tinmay ishlayotganining amaliy samarasidir.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Kino, televideniye va radio rejissyorligi" kafedrası Rejissyorlik (kino va televideniye) ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi Oxunov Axadjon Rossiya Federatsiyasining Moskva shahrida bo'lib o'tgan "Взрослеем вместе" VII Xalqaro kinofestivalda o'zining "Клоун" qisqa metrajli filmi bilan ishtirok etib, festivalda g'olib deb topildi.



Shuningdek, 10–14 noyabr kunlari Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan “45-VGIK Xalqaro talabalar kino festivali”da ham ishtirok etib, uning mazkur filmi ko‘plab tomoshabinlar e‘tirofiga sazovor bo‘ldi.



Institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev yosh ijodkorni ushbu yutuqlar bilan tabriklar ekan, bu natija nafaqat institut, balki mamlakatimiz kino ta'limi va yosh ijodkorlar maktabi uchun katta faxr ekanini ta'kidladi. U Axadjonning ijodga jiddiy yondashuvi, izlanuvchanligi va professional o'sishga bo'lgan intilishini yuqori baholadi hamda bunday muvaffaqiyatlar boshqa talabalar uchun ham katta motivatsiya ekanini qayd etdi.



N.Sayfullayev ushbu “Клоун” qisqa metrajli filmining olinish jaryonlari, shuningdek, Axadjonning kelgusi ijodiy rejalari haqida so‘rar ekan, institut yoshlar ijodini qo‘llab-quvvatlashda, ularning xalqaro tajriba orttirishi va yangi bosqichga chiqishi uchun doimo ochiq maydon bo‘lib qolishini aytib o‘tdi.

Shu o‘rinda biz ham Axadjon Oxunovning kelgusi ijod va o‘qishlarida muvaffaqiyatlar tilaymiz. Uning yangi loyihalari O‘zbekiston kino san‘ati ravnaqiga munosib hissa qo‘shishiga ishonamiz.